IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: FI47692531

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

## Ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda o‘quvchilarni ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyotini joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

ta’lim **o‘zbek tilida** o‘qitiladigan ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi va tushuntirish xati 1-ilovaga muvofiq;

ta’lim **rus va qardosh** tilida o‘qitiladigan ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi va tushuntirish xati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) **2023-yil 1-avgustga qadar** umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ikkinchi xorijiy tilni o‘rgatish bo‘yicha xalqaro nashriyotlar darsliklarini joriy yilda xarid qilish va mahalliylashtirish yuzasidan taklif kiritsin.

3. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov) ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish tizimi joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi mavjud elektron dastur (kundalik.com)ni texnik jihatdan qayta takomillashtirsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ikkinchi xorijiy til hamda kasbiy ta’lim fanlaridan tashqari boshqa fanlarning o‘quv jarayonlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 15-maydagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 125-sonli buyrug‘i asosida tashkil qilinadi.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 17-iyuldagi,
209-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2023-yil 17-iyuldagi
209-son buyrug‘iga
1-ILOVA

## Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi

| T/r | Fan yo‘nalishlari va nomlari | Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida) | | | | | | | | | | | Haftalik umumiy soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *1* | *2* | *3* | *4* | *5* | *6* | *7* | *8* | *9* | *10* | *11* | |
| **I.** | **Filologiya fanlari** | **10** | **11** | **11** | **11** | **11** | **11** | **12** | **10** | **10** | **9** | **9** | **115** |
| 1 | Ona tili va adabiyot | 8 | 7 | 7 | 7 | 6 | 6 | 5 | 5 | 5 | 4 | 4 | **64** |
| 2 | Rus tili | | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | **20** |
| 3 | Chet tili | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | **29** |
| 4 | Ikkinchi xorijiy til | | | | | | | 2 | | | | | **2** |
| **II.** | **Ijtimoiy fanlar** | **1** | **1** | **1** | **1** | **3** | **3** | **4** | **5** | **5** | **4** | **4** | **32** |
| 5 | Tarix | | | | | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 2 | 2 | **17** |
| 6 | Davlat va huquq asoslari | | | | | | | | 1 | 1 | 1 | 1 | **4** |
| 7 | Tarbiya | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | **11** |
| **III.** | **Aniq fanlar** | **6** | **5** | **5** | **5** | **6** | **6** | **5** | **6** | **7** | **6** | **7** | **64** |
| 8 | Matematika | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 4 | 5 | 5 | 5 | 5 | **54** |
| 9 | Informatika va axborot texnologiyalari | 1 | | | | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 | **10** |
| **IV.** | **Tabiiy va iqtisodiy fanlar** | **1** | **2** | **2** | **2** | **2** | **3** | **8** | **8** | **8** | **8** | **8** | **52** |
| 10 | Fizika va astronomiya | | | | | | | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | **11** |
| 11 | Kimyo | | | | | | | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | **10** |
| 12 | Biologiya | | | | | 1 | | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | **11** |
| 13 | Geografiya va iqtisodiyot | | | | | 1 | | 2 | 2 | 2 | 2 | 1 | **10** |
| 14 | Tabiiy fan (Science) | 1 | 2 | 2 | 2 | | 3 | | | | | | **10** |
| **V.** | **Amaliy fanlar** | **4** | **5** | **5** | **5** | **6** | **6** | **5** | **4** | **4** | **4** | **3** | **51** |
| 15 | Musiqa madaniyati | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 0,5 | | | | | **6.5** |
| 16 | Tasviriy san’at va chizmachilik | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 0,5 | 1 | 1 | | | **8.5** |
| 17 | Texnologiya | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 2 | 1 | 1 | | | **12** |
| 18 | Kasbiy ta’lim | | | | | | | | | | 2 | | **2** |
| 19 | Jismoniy tarbiya | 1 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 1 | 2 | **20** |
| 20 | Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik | | | | | | | | | | 1 | 1 | **2** |
| **Jami** | | **22** | **24** | **24** | **24** | **28** | **29** | **34** | **33** | **34** | **31** | **31** | **314** |

# TUSHUNTIRISH XATI

## I. Asosiy tamoyillari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”**da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi 27-PF-son Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

## II. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

**2.** 2023-2024-o‘quv yilida “**Ikkinchi xorijiy til**” faqat 7-sinfda haftasiga **2 soatdan** o‘qitiladi.

**3.** Umumta’lim maktablarida xorijiy *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **Ikkinchi xorijiy til** sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

**4.** “**Ikkinchi xorijiy til**” fani uchun 10-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 1 soat, “Jismoniy tarbiya” fanidan 1 soat olinib o‘qitiladi.

**5.** 2023-2024-o‘quv yilida “**Kasbiy ta’lim**” fani faqat 10-sinfda haftasiga **2 soatdan** o‘qitiladi.

**6.** “**Kasbiy ta’lim**” fani uchun “Matematika” fanidan 1 soat, “Musiqa madaniyati” fanidan 0,5 soat, “Tasviriy san’at” fanidan 0,5 soat olinib o‘qitiladi.

## III. Yakuniy qoidalar

**7.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga muvofiq, malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7-sinfida “**Ikkinchi xorijiy til**” ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2023-yil 17-iyuldagi
209-son buyrug‘iga
2-ILOVA

# Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan ikkinchi xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi

| T/r | Fan yo‘nalishlari va nomlari | Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida) | | | | | | | | | | | Haftalik umumiy soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *1* | *2* | *3* | *4* | *5* | *6* | *7* | *8* | *9* | *10* | *11* | |
| **I.** | **Filologiya fanlari** | **10** | **11** | **11** | **11** | **11** | **11** | **12** | **10** | **10** | **9** | **9** | **115** |
| 1 | Ona tili va adabiyot | 8 | 7 | 7 | 7 | 5 | 5 | 4 | 4 | 4 | 3 | 3 | **57** |
| 2 | O‘zbek tili/Rus tili | | 2 | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | **27** |
| 3 | Chet tili | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | **29** |
| 4 | Ikkinchi xorijiy til | | | | | | | 2 | | | | | **2** |
| **II.** | **Ijtimoiy fanlar** | **1** | **1** | **1** | **1** | **3** | **3** | **4** | **5** | **5** | **4** | **4** | **32** |
| 5 | Tarix | | | | | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 2 | 2 | **17** |
| 6 | Davlat va huquq asoslari | | | | | | | | 1 | 1 | 1 | 1 | **4** |
| 7 | Tarbiya | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | **11** |
| **III.** | **Aniq fanlar** | **6** | **5** | **5** | **5** | **6** | **6** | **5** | **6** | **7** | **7** | **7** | **64** |
| 8 | Matematika | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 4 | 5 | 5 | 5 | 5 | **54** |
| 9 | Informatika va axborot texnologiyalari | 1 | | | | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 | **10** |
| **IV.** | **Tabiiy va iqtisodiy fanlar** | **1** | **2** | **2** | **2** | **2** | **3** | **8** | **8** | **8** | **8** | **8** | **52** |
| 10 | Fizika va astronomiya | | | | | | | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | **11** |
| 11 | Kimyo | | | | | | | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | **10** |
| 12 | Biologiya | | | | | 1 | | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | **11** |
| 13 | Geografiya va iqtisodiyot | | | | | 1 | | 2 | 2 | 2 | 2 | 1 | **10** |
| 14 | Tabiiy fan (Science) | 1 | 2 | 2 | 2 | | 3 | | | | | | **10** |
| **V.** | **Amaliy fanlar** | **4** | **5** | **5** | **5** | **6** | **6** | **5** | **4** | **4** | **4** | **3** | **51** |
| 15 | Musiqa madaniyati | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 0,5 | | | | | **6.5** |
| 16 | Tasviriy san’at va chizmachilik | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 0,5 | 1 | 1 | | | **8.5** |
| 17 | Texnologiya | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 2 | 1 | 1 | | | **14** |
| 18 | Kasbiy ta’lim | | | | | | | | | | 2 | | **2** |
| 19 | Jismoniy tarbiya | 1 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 1 | 2 | **20** |
| 20 | Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik | | | | | | | | | | 1 | 1 | **2** |
| **Jami** | | **22** | **24** | **24** | **24** | **28** | **29** | **34** | **33** | **34** | **31** | **31** | **314** |

## TUSHUNTIRISH XATI

### I. Asosiy tamoyillari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”**da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi 27-PF-son Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

### II. O‘quv soatlarining taqsimlanishi

**2.** 2023-2024-o‘quv yilida “**Ikkinchi xorijiy til**” faqat 7-sinfda haftasiga **2 soatdan** o‘qitiladi.

**3.** Umumta’lim maktablarida xorijiy *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **Ikkinchi xorijiy til** sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

**4.** “**Ikkinchi xorijiy til**” fani uchun 10-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 1 soat, “Jismoniy tarbiya” fanidan 1 soat olinib o‘qitiladi.

**5.** 2023-2024-o‘quv yilida “**Kasbiy ta’lim**” fani faqat 10-sinfda haftasiga **2 soatdan** o‘qitiladi.

**6.** “**Kasbiy ta’lim**” fani uchun “Matematika” fanidan 1 soat, “Musiqa madaniyati” fanidan 0,5 soat, “Tasviriy san’at” fanidan 0,5 soat olinib o‘qitiladi.

### III. Yakuniy qoidalar

**7.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga muvofiq, malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 7-sinfida “**Ikkinchi xorijiy til**” ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.